



## BO'LAJAK IJTIMOIY ISH XODIMLARINING AMALIY

### KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14095306>

**Tursunaliyeva E'zozaxon Ilxomjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqola bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos jihatlari haqida.

#### **Kalit so'zlar**

kasbiy kompetentlik, kompetensiya, kasbiy malaka, mahorat, bo'lajak mutaxassis, ijtimoiy ish xodimi, pedagogik faoliyat, integrativ usul.

#### **Kirish.**

«Kompetentlik» va «kompetensiya» atamalari sinonim tushunchalar bo'lib, bu tushunchalar O'zbekiston pedagogikasida yangi hisoblanadi. Shuning uchun ularning turli xil talqinlari mavjud. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha ta'riflar berilgan:<sup>7</sup>

kompetensiya - tegishli sohada kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

#### **Asosiy qism.**

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazaridan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kompetentlik bo'lajak mutaxassisning

<sup>7</sup> Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги. Тошкент. 2021 йил 19 октябрь.



muayyan vaziyatlarda bilim, ko'nikma va malaka, faoliyat metodlari majmuasini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi. Pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan kompetensiya - bu bilim va vaziyat orasidagi aloqani o'rnatish imkoniyati yoki keng ma'noda muammoni hal etish uchun zarur bo'lgan jarayonni (harakat va bilim) ko'rsatish, topish qobiliyati.

Kompetentlilik faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, o'quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi.

Sh.B.Xasanova fikriga ko'ra, o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiylar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiylar; umumiy (predmetli) kompetensiylar; xususiy (biologik) kompetensiylar.

Biz kompetensiyalarni tayanch va kasbiy kompetensiyalarga bo'ldik. Tayanch komepetensiya - bu o'z tavsifi va qo'llanilish darjasini bo'yicha. Kasbiy kompetensiya esa, o'z tavsifi va qo'llanish darjasini bo'yicha qaralayotgan mutaxassislikka mos keluvchi kompetensiya. Uni asosiy kompetensiya deb ham atash mumkin.

Tayanch kompetentlik oliy ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallahda muhim ahamiyat kasb etadi.

N.N.Narziyeva ta'kidlashicha tayanch kompetensiylar bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Talabaning kasbiy faoliyat sohasida malakali bo'lishini ta'minlash uchun u tegishli kasbiy malakaga ega bo'lishi lozim. Kasbiy kompetensiya talabaning asosiy yetakchiligi, talabalarining ta'lim olishida o'z hissasini qo'shishi, keyingi hayotda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam berishi, kasbiy faoliyatga o'rgatishi lozim.

V.I.Baydenko «kasbiy kompetensiya» tushunchasini quyidagicha tavsiflagan:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtida avtonomlik va moslanuvchanlik xususiyatlariga ega bo'lish;
- kasbiy faoliyat muhitida hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- faoliyat me'zoni (sifat o'lchovi), qo'llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi;
- ish beruvchi talablariga ko'ra, kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyatlardan unumli foydalanish;

- insонning hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatlari bajarishi imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko'nikmalarining integrallashgan birlashuvi.<sup>8</sup>

Pedagogika sohasida kasbiy kompetentlik tarkibi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Jumladan: N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayevlar "Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi" deb ta'rif beradilar.

### Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim shartlaridan biri - ularda asosiy maxsus va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Yana shunday yondashuv ham mavjudki, integrativ usullarni rivojlantirish maxsus vazifa emas, balki ta'lim jarayonining qo'shimcha natijasidir. Bizningcha, bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga oid ishlar o'z mohiyatiga ko'ra, kasbiy va integrativ bilimlarning rivojlanish jarayoni bilan bog'liqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent. 2021 yil 19 oktyabr.
2. Ismoilov E.O. Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish: p.f.b.f.d(PhD) disser. - Toshkent, 2023.
3. Muslimov. N.A., Abdullaeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. - T. "Fan va texnologiya". 2013.

<sup>8</sup> Ismoilov E.O. Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish: p.f.b.f.d(PhD) disser. – Toshkent, 2023.